O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIGIDA FUNKTSIONAL NAZARIYANING ROLI VA UNI AMALIYOTDA QO‘LLASHNING BAXSLI JIHATLARI

MANSUROV ODILJON OBIDOVICH
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
3-BOSQICH TALABASI

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy tezisda O‘zbekiston Respublikasining to‘lovga qobiliyatsizlik huquqida funktsional nazariyaning tutgan o‘rni va uning qonunchilikdagi aksi mantiqiy-huquqiy tahlil qilinadi. Philip R. Woodning mashhur "Principles of International Insolvency" (Xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik tamoyillari) kitobi va undagi funksional tahlil qilib bunda bir qator o’zining izlanishlarida bir qator usullarni ko’rsatib qo’lib qarzdorning tugatib yuborishdan ko’ra uni saqlab qolish kerekligini afzalligini ko’rsatib bergan. Shuningdek, sud amaliyotida sanatsiya tartib-taomillarini qo‘llashdagi risklar va xorijiy investorlar ishonchini himoya qilish masalalari yuzasidan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *To‘lovga qobiliyatsizlik, funktsional nazariya, sog‘lomlashtirish, sud sanatsiyasi, kreditorlar manfaati, Likvidatsiya, Going Concern, restrukturizatsiya.*

Kirish

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining rivojlanishi to‘lovga qobiliyatsizlik institutini tubdan modernizatsiya qilishni taqozo etdi. Uzoq yillar davomida milliy huquq tizimida kreditorlar haqini undirish va korxonani tugatishga (likvidatsiyaga) qaratilgan konservativ yondashuv ustunlik qilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda qabul

qilingan yangi tahrirdagi "To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida"gi Qonun bu sohada yangi davrni boshlab berdi. Bugungi kunda O‘zbekiston qonunchiligida korxonalarni saqlab qolish va iqtisodiy muomalada ushlab turishga qaratilgan **funktsional nazariya (Functional Theory)** yetakchi rol o‘ynamoqda.

Ushbu tadqiqotda funktsional nazariyaning milliy qonunchilikdagi roli, eng avvalo, bankrotlik jarayoniga nafaqat ikki subyekt (qarzdor va kreditor) o‘rtasidagi xususiy nizo, balki makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir etuvchi ommaviy-huquqiy jarayon sifatida qaralishida namoyon bo‘ladi. Qonunchilikda joriy etilgan sudgacha sanatsiya, sud sanatsiyasi va reabilitatsiya kabi tartib-taomillar davlatning iqtisodiy zanjirlar uzilishining oldini olish, ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik va soliq bazasini saqlab qolish kabi strategik maqsadlariga xizmat qiladi. Ya’ni, to‘lovga qobiliyatsizlik huquqi jamiyatda sotsial-iqtisodiy barqarorlashtiruvchi funktsiyani bajarmoqda.

Philip R. Wood tadqiqotlariga ko’ra Reabilitatsiya bu funksional nazariyaning "yuragi"dir. Korxonani butunligicha saqlab qolish, uni qismlarga bo‘lib sotishdan ko‘ra ko‘proq qiymat beradi. Bu usul orqali qarzlarni kechiktirish yoki qismlarga bo‘lish orqali biznesni oyoqqa turg‘izish. Keyinchalik ish o‘rinlari saqlanadi va iqtisodiy zanjir uzilmaydi.

Likvidatsiya (Tartibli tugatish) aktivlarni shoshilinch (fire-sale) emas, balki

bozor qiymatida, tartibli ravishda realizatsiya qilish. Bu holatda likvidatsiya qilish jarayonida kim-oshdi savdo yoki auksionda narxlar sezirali ravishda kamayashi mumkin bu foizlar hisobiga olsak tahminan (20 foizdan - 80 foizgacha) bo’lishi natijada qarzdorning manfaatlariga zarar yetkazishi va kreditorning to’liq hajmidagi majburiyatlarni bajara olamasligi mumkin. Undan ko’ra aktivlardan korxona o’zi foydalanganili ancha manfaatli bo’lishi mumkin.

Kompaniyaning brendi va mijozlar bazasi bu orqali biznes aloqalarini kompaniya rivojlanishi. Wood funksional nazariya doirasida nomoddiy aktivlar (brend, patentlar, litsenziyalar) qiymatiga katta e'tibor beradi. Ko‘pincha kompaniyaning binolari, aktivlaridan ko‘ra uning nomi (brendi) qimmatroq turadi. Kompaniyaning sodiq mijozlari va yetkazib beruvchilari bilan bo‘lgan munosabatlari ham hisobga olinishi kerek deb hisoblaydi.

"Going Concern" (Uzluksiz faoliyat). Bu yuqoridagi mijozlar va brend tushunchasini birlashtiradi. Korxona qismlarga bo'linganda uning qiymati A+B+C bo'lsa, yaxlit korxona sifatida uning qiymati ko'pincha (A+B+C) * 2 bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik e'lon qilinganidan keyin ham ishlab chiqarishni to'xtatmaslik uchun "tezkor moliyalashtirish" (DIP financing) mexanizmini qo'llash.

Philip Wood o'z kitoblarida bankrotlik huquqini shunchaki moddalar yig'indisi emas, balki jamiyat va iqtisodiyotda ma'lum bir funksiyani bajaruvchi mexanizm sifatida tahlil qiladi. Uning yondashuvi "funksional" deb atalishiga sabab — u qonunlarning qanday yozilganiga emas, balki hayotda qanday ishlashiga ya’ni (funksiyasiga) e'tibor beradi.

Bu bo’yicha UNCITRAL (BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi)ning to‘lovga qobiliyatsizlik sohasidagi asosiy hujjati mavjud bo’lib. Ushbu hujjatning restrukturizatsiya haqidagi "Part Two, Chapter IV: Reorganization proceedings" bo‘limida keltirilgan. Bundagi asosiy jihatlar restrukturizatsiya — bu kreditorlar manfaati bilan qarzdorning yashab qolish imkoniyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi iqtisodiy amaliyotidir. Qonunchilikda suiiste’molliklarga qarshi sanksiyalar o‘rnatilishi va sudlar tomonidan rejalarning adolatli baholanishi (masalan, "cram-down" mexanizmi orqali) ya’ni majburiy tasdiqlash mexanizmi —bu to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonida restrukturizatsiya rejasini ayrim kreditorlar qarshi bo‘lishiga qaramay, sud tomonidan barcha uchun majburiy deb e’lon qilinishidir . Yakuniy maqsad esa restrukturizatsiyadan samarasiz korxonalarni bozordan

chiqarish yoki vaqtinchalik qiyinchilikka uchrab iqtisodiy salohiyatini saqlab qolgan subyektlarni qayta tiklash.

Bu soha bo'yicha eng ilg'or davlatlaridab biri Germaniyada mexanizmi (nemis tilida Obstruktionsverbot — "to'sqinlik qilishni taqiqlash") Germaniya To'lovga qobiliyatsizlik kodeksining (Insolvenzordnung — InsO) 245-paragrafida

aniq belgilab qo'yilgan. Bu qismnida restrukturizatsiyaga aniq ta'rif berilmagan bo'lsa ham yuqoridagi UNCITRAL talablari ayrimlari ko'rsatib qo'yilgan kreditor cheklov qo'ya olmasligi. Likvidatsiya qilish reja doirasida ushbu guruhdagi kreditorlar korxona tugatilganda likvidatsiya qilinganda olishi mumkin bo'lgan mablag'dan kam bo'lmagan miqdorni olishi kafolatlangan bo'lishi kerak shu orqali ikkala tomonga zarar yetkazmaslikni ko'rishimiz mumkin.

Biroq, funktsional yondashuvning O'zbekiston qonunchiligi va sud amaliyotiga integratsiya bo'lishi qator baxsli va ziddiyatli muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Eng asosiy baxsli jihat — **kreditorlarning (ayniqsa, tijorat banklari va garovli kreditorlarning) qonuniy manfaatlarining ortqa surilishi xavfidir.** Qonun bo'yicha reabilitatsiya tartib-taomili joriy etilganda kreditorlarning talablarini qondirishga moratoriy e'lon qilinadi. Bu esa kreditorlarning o'z mablag'larini o'z vaqtida qaytara olmasligiga va pirovardida moliya bozorida kredit risklarining ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, sudlarga korxonaning haqiqatda sog'lomlasha olishi (viability) ni baholashda keng diskresion (ixtiyoriy) vakolatlar berilgani, amaliyotda samarasiz korxonalarning sun'iy ravishda yashab qolishi va "moral hazard" (qarzdorlarning majburiyatdan qochish uchun reabilitatsiyani suiiste'mol qilishi) holatlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Ushbu holatni muvozatnatga kelitirish uchun va bunday xavflarni kamaytirish uchun O'zbekiston qonunchiligida ham reabilitatsiya usulli bilan korxonani saqlab qo'lish sudgacha sanatsiya yoki sanatsiyasi ham bunga yaqol

misol. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev to‘lovga qobiliyatsizlik institutini takomillashtirish va moliyaviy ahvoli og‘ir tadbirkorlik subyektlarini sog‘lomlashtirish bo‘yicha yangi yondashuvlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bunda Adliya vazirligi huzurida To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari bo‘yicha agentlik tashkil etish taklif qilindi. Ushbu tuzilma sohada yagona davlat siyosatini yuritish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, bankrotlik omillarini tahlil qilish va bartaraf etish choralarini ko‘rish, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish bilan shug‘ullanadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotning mazmun mohiyatida, To‘lovga qobiliyatsizlik huquqida funktsional yondashuv shunchaki quruq normalar yig‘indisi emas, balki bozor barqarorligini ta’minlovchi real mexanizmdir. Mashhur huquqshunos Philip R. Wood ta’kidlaganidek, qonunlarning qog‘ozda qanday yozilgani emas, balki amaliyotda qanday funktsiya bajarishi birlamchi ahamiyatga ega.

Tadqiqotning eng muhim yakuniy tezislari quyidagilardan iborat:

- Reabilitatsiya va Uzluksiz faoliyat ("Going Concern"): Korxonani tugatish (likvidatsiya) va aktivlarni shoshilinch sotish auksionlarda narxning 20 foizdan 80 foizgacha qadrsizlanishiga olib keladi. Aksincha, korxonani yaxlit holda saqlab qolish uning qiymatini qismlarga bo‘lib sotgandagiga qaraganda kamida ikki barobarga ((A+B+C) x 2) oshiradi. Bu orqali nomoddiy aktivlar (brend, mijozlar bazasi) va ish o‘rinlari saqlab qolinadi.
- Xalqaro tajriba va Manfaatlar balansi: UNCITRAL standartlari va Germaniya qonunchiligidagi Obstruktionsverbot (to‘sqinlikni taqiqlash) printsipi ayrim kreditorlarning asossiz qarshiligiga qaramay, reabilitatsiya rejasini sud tomonidan majburiy tasdiqlash (*cram-down*) mexanizmini

qo‘llaydi. Bunda kreditorlarga baribir likvidatsiyadagidan kam bo‘lmagan mablag‘ olish kafolatlanadi.

- O‘zbekiston qonunchiligidagi roli va islohotlar: Milliy huquq tizimi ham korxonalarni tugatish modelidan ularni sanatsiya qilish va saqlab qolish modeliga o‘tmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida belgilangan yangi strategiya hamda Adliya vazirligi huzurida To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari bo‘yicha agentlikning tashkil etilishi buning yaqqol tasdig‘idir. Mazkur agentlik tizimli tahlil o‘tkazish va korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston to‘lovga qobiliyatsizlik huquqida funktsional nazariya tamoyillarini (jumladan, tezkor moliyalashtirish va majburiy tasdiqlash mexanizmlarini) kengaytirish orqali samarasiz korxonalarni bozordan tartibli chiqarish hamda vaqtinchalik qiyinchilikka uchragan strategik subyektlarni qayta tiklash o‘rtasidagi optimal va adolatli balansni ta’minlaydi.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida (Yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – 2022-y. 12-aprel, O‘RQ-763-son.
2. UNCITRAL Legislative Guide on Insolvency Law. United Nations Commission on International Trade Law. Part Two, Chapter IV: Reorganization proceedings. – United Nations: New York, 2005. – 442 p.
3. German Insolvency Code (Insolvenzordnung - InsO). Paragraph 245 (Obstruktionsverbot) // Bundesgesetzblatt (BGBl. I S. 2866), last amended in 2024.
4. Wood, Philip R. Principles of International Insolvency (Law and Practice of International Finance, Vol. 6). 2nd edition. – London: Sweet & Maxwell, 2007. – 612 p.

5. Wood, Philip R. Comparative Insolvency Law: A Global Guide to Business Bankruptcy. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 480 p.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati. To‘lovga qobiliyatsizlik institutini takomillashtirish va moliyaviy ahvoli og‘ir tadbirkorlik subyektlarini sog‘lomlashtirish bo‘yicha yangi yondashuvlar yuzasidan taqdimot tahlili. – [Elektron resurs]. URL: https://www.president.uz (Murojaat sanasi: 2026-yil may).

7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Adliya vazirligi huzurida To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari bo‘yicha agentlik faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi rasmiy xabar. – [Elektron resurs]. URL: https://www.minjust.uz.